

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA "10 ICHIDAGI SONLAR"NI O'RGAТИSHDA SAMARALI METODLAR

Sultonova Madina Shavkat qizi

Guliston davlat pedagogika institute  
boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi.

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilarida "10 ichidagi sonlar" tushunchasini shakllantirish jarayoni va uni samarali tashkil etish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, "Paravoz", "Svetafor", metod, vizual vositalar, interaktiv, akt.

Boshlang'ich sinf matematika ta'liming eng asosiy bosqichlaridan biri bu — o'quvchilarda 10 ichidagi sonlar haqida aniq va mustahkam tushuncha shakllantirishdir. Bu mavzu 1-sinfdayoq o'rnatiladi va o'quvchilarda sonni idrok etish, uni sanash, solishtirish, qo'shish-ayirish kabi amallarni bajarish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu bosqichda to'g'ri yondashuv, mos metodlar va o'quvchiga qulay didaktik vositalar tanlansa, keyingi matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayoni yengil va samarali kechadi. An'anaviy o'qitish metodlari bolaning faqat eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi. Ammo 6–7 yoshli o'quvchilar uchun qiziqarli, o'yin asosidagi, hayotiy misollar bilan boyitilgan metodlar ko'proq natija beradi. Bir nechta samarali metodlarni ko'rib chiqamiz:

**Ko'rgazmali (vizual) metod.** Bu metodda bolalargasonlar ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan shakllar orqali tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun konkret, ya'ni ko'rindigan narsalar orqali o'rganish samaraliroq hisoblanadi. Qo'llanilishi:

- 10 gacha bo'lgan sonlarni turli buyumlar (olma, tugma, qalam) orqali ko'rsatish.
- Raqamli kartochkalarni ko'rsatish va unga mos miqdordagi predmetni topish.

- Sonli zanjirlar, ya’ni tartiblangan raqamlar bilan ishlash.

Afzalliklari: Sonlarni tasavvur qilish osonlashadi, vizual xotira rivojlanadi, bolaning e’tibor va taqqoslash qobiliyati kuchayadi. Misol: 6 raqamini tushuntirishda o‘qituvchi 6 ta qalam ko‘rsatadi. So‘ng o‘quvchilarga rasm ichidan 6 ta olmani topish topshirig‘i beriladi.

**O‘yinli metod.** Bu metodda o‘quv jarayoni turli xil matematik o‘yinlar orqali tashkil etiladi. O‘yin orqali o‘quvchi faol qatnashadi va darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Qo‘llanilishi:

- “Svetofor o‘yini”: misol aytiladi, to‘g‘ri javob bo‘lsa yashil, noto‘g‘ri bo‘lsa qizil kartochka ko‘tariladi.
- “Kim tez?”: og‘zaki misollar aytiladi, javobni birinchi aytgan o‘quvchi ball oladi.
- “Parvoz o‘yini”: samolyotga 10 ichidagi sonlar joylashtiriladi, noto‘g‘ri sonlar chiqarib tashlanadi.

**Paravoz usuli** — bu o‘quvchilarda sonlar ketma-ketligini, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglashga xizmat qiluvchi samarali metod bo‘lib, u orqali raqamlar va misollar vagonlar ko‘rinishida taqdim etiladi. Har bir vagon ustida biror son yoki arifmetik amaliy topshiriq joylashtiriladi. O‘quvchi birinchi vagondan boshlab izchil ishlaydi. O‘quvchilarga vagonlardan iborat tasvirli topshiriq beriladi. Har bir vagon ustida: Ketma-ket sonlar; Qo‘shish/ayirish misollari; Namunasiga qarab davom ettirish talab etiladigan ketma-ketliklar bo‘lishi mumkin. Bu usul orqali o‘quvchi fikrlaydi, izlaydi, taqqoslaydi va aniqlaydi. Qo‘llanilishi:

1. Ketma-ket sonlar bilan ishlash: Vagonlarga 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar yoziladi. Ba’zi vagonlar bo‘sh qoldiriladi, o‘quvchi esa ularni to‘ldiradi:

$$1 \rightarrow 2 \rightarrow \rightarrow 4 \rightarrow \rightarrow 6$$

O‘quvchi yo‘qolgan sonlarni to‘g‘ri aniqlab yozadi: 3 va 5.

2. Arifmetik amallar bilan ishslash: Vagonlarda misollar beriladi, natijasi navbatdagi vagonda ifodalanadi yoki o‘quvchi topadi:  $2 + 3 \rightarrow 5 \rightarrow 5 - 2 \rightarrow 3 \rightarrow 3 + 4 \rightarrow \underline{\quad}$

So‘nggi vagonda o‘quvchi 7 ni yozadi.

3. Murakkablashtirilgan topshiriq: Vagonlar ustidagi sonlar ketma-ket bo‘lishi mumkin, ammo mantiqiy bog‘lanish kerak bo‘ladi. Masalan:  $2 \rightarrow 4 \rightarrow 8 \rightarrow$

Bu yerda har bir son ikki baravar ko‘paymoqda. Demak, so‘nggi vagon – 16.

Afzalliklari: O‘quvchining fikrlash, kuzatish va ketma-ketlikni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Sonlar bilan ishslashda mantiqiy bog‘lanishni shakllantiradi.

Darsni interaktiv va qiziqarli qiladi.

Har bir o‘quvchi mustaqil ishslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Amaliy faoliyatga asoslangan metod.** Bu metod o‘quvchilarning o‘zлari predmetlar bilan bevosita ishslashlariga asoslanadi. Ya’ni ular sanaydi, ajratadi, qo‘sadi yoki ayiradi. Qo‘llanilishi:

- Tugma, tayoqcha, tosh kabi predmetlar bilan amaliy ishlar bajarish.
- Barmoqlar yordamida misollarni yechish.
- Har xil sonli guruhlar tashkil etib, ularni solishtirish.

Afzalliklari:

- Sonlar haqidagi tushuncha amaliy asosda shakllanadi.
- Eshitish, ko‘rish va harakat birgalikda ishlaydi.
- Mustaqil fikrlash va xotira kuchayadi.

Misol:

O‘quvchi 8 ta tosh sanaydi, so‘ng undan 3 tasini olib qo‘yadi va nechta qolgani aniqlanadi:  $8 - 3 = 5$ .

**So‘zli va assotsiativ metod.** Bu metodda har bir son obrazlar, predmetlar, o‘xshatishlar yoki she’rlar orqali o‘rgatiladi. Bu yondashuv bolalarga eslab qolishni osonlashtiradi. Qo‘llanilishi:

- Sonlarni ma'lum obrazlarga tenglashtirish: 5 – beshbarmoq, 2 – qulqoq.
- She'r, topishmoq, ertak orqali tushuntirish.
- Raqamlarni shaklga o'xshatish: 0 – halqa, 8 – sakkizoyoq.

Afzalliklari:

- Sonlar xotirada uzoq saqlanadi.
- Tasavvur va ijodiy fikrash rivojlanadi.
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida iliq aloqa shakllanadi.

Misol:Bir – tayoq, ikki – qanot,

Uch – daraxt, to'rt – kvadrat...

**Axborot texnologiyalar asosida o'rgatish (AKT metodlari).** Bu metod zamonaviy texnologiyalar (kompyuter, planshet, ilovalar, interaktiv doska) yordamida ta'lif berishni ko'zda tutadi.Qo'llanilishi:

- "MathKids", "IQsha", "LearningApps" ilovalarida misollar yechish.
- Interaktiv darsliklar va sonlar o'yini yordamida dars o'tish.
- Audio-vizual vositalar orqali sonlarni taqdim etish.

Afzalliklari:

- Har bir o'quvchi individual ishlash imkoniga ega bo'ladi.
- Darsda qiziqish kuchayadi.
- Natijalar tezkor ko'rinishi.

Misol:Planshetda "6–2" misoli chiqadi. Variantlar orasidan to'g'ri javob tanlanadi. Dastur natijani baholab beradi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'lif bosqichida matematik bilimlarning mustahkam poydevorini yaratish, ayniqsa, "10 ichidagi sonlar" tushunchasini o'zlashtirish, o'quvchilarning kelgusi yutuqlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarning yoshiga, psixologik holatiga va idrok darajasiga mos bo'lishi lozim. Tajriba va kuzatuvlardan shuni ko'rsatmoqdaki,

vizual, o‘yinli hamda interaktiv metodlar son tushunchasini chuqurroq anglashga yordam beradi. “Paravoz usuli”, “Svetofor o‘yini”, “Bo‘linadi – bo‘linmaydi” kabi metodlar orqali darslar qiziqarli va samarali tashkil etiladi, bu esa o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va amaliy yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shunday qilib, “10 ichidagi sonlar”ni o‘rgatishda samarali metodlardan foydalanish nafaqat nazariy bilim berish, balki o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tez va aniq qaror qabul qilish, darsga faol ishtirok etish kabi muhim ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- 1.N. Hamidova, Z. Ibragimova, T. Tasetov. Matematika. Toshkent. Turon-Iqbol–2007
- 2.Jumayev M. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi. Toshkent–2022.
- 3.Axmedov M, Abduraxmonov N, Jumayev M “Matematika”, O’qituvchi kitobi, Toshkent–2003.
- 4.Jumayev M. Matematika o’qitish metodikasi. Toshkent “Turon-Iqbol”–2016.
5. Tadjiyeva Z, Jumayev M. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi. Toshkent.”Fan va texnologiya”–2005.
6. Levenberg L. “Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi” Toshkent–1985